ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(4)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 430 sahifa,
20-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

MUNDARIJA

Pedagogical Model for Developing Students' Communicative Competence: Organisation of Experimental Work and Evaluation of its Effectiveness 10
Mukhamedova Matlyuba Satvaldiyevna, Xudoyberdiyev Olloqul Isaqovich

Bakalavriat darajasida bo'lajak matematiklarning kasbiy hamda amaliy malakalarini rivojlantirish usullari ... 17
Abduraxmonov Abdumo'min, Sheraliyev Aliboy Tulboyevich

Sport mashg'ulotlarini real vaqt rejimida boshqarishda ter biomarkerlarini o'lchovchi taqiladigan biosensorlar 20
Meliqo'ziyev Azizjon Adxamjon o'g'li

Ekstremal issiqlik sharoitida sportchilarning ish qobiliyatini oshirish shakllari: akklimatsiya, sovitish va individual gidratatsiya dalillari 26
Qodirova Shahlo Shavkatjon qizi

Mikroorganizmlarda fermentatsiya orqali energiya hosil bo'lishi va uning biotexnologik ahamiyati 31
Raxmatullaeva Maxfuza Igamberdiyevna

Bo'lajak pedagoglar tayyorgarligida learning analytics asosidagi metodik ta'minotning mazmuni va tuzilishi 37
Akbarova Sevaraxon Xusanboy qizi

Sovet davridan mustaqillik davrigacha O'zbekistonda suv siyosatining tarixiy transformatsiyasi: Orolbo'yi inqirozi misolida 45
Dadaboyev Nodirbek Ergashali o'g'li

Digital SAT matematika bo'limida maxsimal (800 ball) natijaga erishish strategiyalari va desmos interfaol imkoniyatlaridan foydalanish 51
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich

Ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning, kreativ yondashuv asosida talabalarning nutq va tafakkurini rivojlantirishga oid nazariy bilim hamda amaliy malakalarga egaligi 55
Abdullayeva Mavluda Aribovna

Bo'lajak pedagoglarda pedagogik improvizatsion ko'nikma va malakalar 62
Ablokulov Sherali Davronovich

Interaktiv platformalar vositasida bo'lajak pedagoglarning texnologik-amaliy kompetensiyasini rivojlantirish: elektron ta'lim resurslarini yaratish tajribasi 66
Maxmudov Abduxalim Xamidovich, Yo'ldashev Axrorjon Egamnazar o'g'li

Elektr yoritish fanini o'qitishda yangi interfaol metodlarning ahamiyati 71
Nasretdinova Feruza Nabiyevna

Developing Methodological Decision-Making Skills in Pre-Service English Language Teachers Through Clil-Based Tasks 75
Nilufar Achilovna Tuxtayeva

Developing Linguocultural Competence Through Digital Storytelling in English Language Teaching: an Integrated Approach 79
Rakhimov Mansur

Nature of Speaking in EFL Contexts: Fluency, Accuracy, and International Competence 83
Rashidova Nodira Khabibullayevna, Egamberdiyeva Marjona Abdurasul kizi

Autizmli bolalarning sensor rivojlanishida ta'lim muhitining o'rni 89
Sh. A. Nurmatova

Ta'limda inson va sun'iy intellekt hamkorligining metodologik transformatsiyasi: inson markazli pedagogik paradigma 94
Tadjimatova Xosiyatxon Botirjon qizi

Ingliz tilini o'qitishda aralash metodlarni qo'llashning didaktik asoslari va darsni loyihalash modeli 102
Usmonova Dilnoza Muratovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Онлайн-проекты как механизм формирования профессиональных навыков у будущих учителей русского языка 106
Матниязова Азиза Бахтияровна

Malakali dzyudochilarni tayyorlashda texnik-taktik mahoratni takomillashtirish mexanizmlariga innovatsion yondashuv 110
Tangriyev Abdullo Tovashevich

Malakali dzyudochilarni xalqaro musobaqalarga tayyorlash tizimini takomillashtirish: Olimpiya saralash davrida rejalashtirish va cho'qqi shaklga chiqarish 116
Tangriyev Abdukarim Tovashevich

Sinfdan tashqari faoliyatlar jarayonida hadislarga asoslangan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning pedagogik salohiyati va amaliy asoslarini takomillashtirish 122
Fayzullayeva Gulnoza Kamolovna

Ta'lim loyihalarining iqtisodiy-pedagogik samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari 129
Saitxonov Bobomurod Po'latovich

Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan logopedik mashg'ulotlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi 133
Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi

Aksiologik yondashuvning pedagogik va psixologik mohiyati 138
Hafizov Shahriyor Shavkatovich

Emotsional intellektni rivojlantirishda kognitiv yondashuvning nazariy-metodologik asoslari 142
Nishonova Lobar Mirzakulovna

Boshlang'ich sinflarda ongli o'qishni leksik-kognitiv yondashuv asosida rivojlantirish 146
Ne'matova Diyora Baxodir qizi, Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna

O'qituvchilarda kasbiy stressning yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar 153
Konratbayeva Ayjamal Bazarbayevna

Xorijiy tajribada neyropedagogik yondashuvlar va kognitiv boshqaruv modellari: kengaytirilgan tanqidiy komparativ tahlil 158
Izzatullayeva Zohidaxon Sunatdullayevna

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosi: pedagogik tahlil 164
Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Israilova Oydin Uchkun qizi

O'zbek musiqiy merosi va uni talabalarda qadriyatli munosabat sifatida shakllantirish 169
Mannapov Sultonali, Mansurova Nigoraxon Rustamjonovna

Integrativ ta'lim texnologiyalari va raqamli vositalar asosida bilish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi 173
Quvvatova Mohira Hikmatillayevna

Maktabgacha ta'limda 6–7 yoshli bolalarning metakognitiv kompetensiyalarini o'yin faoliyati orqali rivojlantirishning texnologik dasturi va uni amaliyotga tatbiq etish tizimi 177
Nuritdinova Xurshida Narpulatovna

Futbol texnikasining asosiy elementlari va texnik harakatlarni bajarish usullarini o'rgatish 182
Sadriddin Tulepov

Innovatsion ta'lim muhiti asosida pedagogika fanini o'qitish modelining samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash 187
Abdusattorova Sarvinoz Norqo'zi qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy idrok va fanga oid kompetensiyalarni rivojlantirishning sinergetik-integrativ asoslari 192
Abdullayeva Feruza Nurillayevna

Rus tilini o'qitish jarayonida talabalarning o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi 197
Allayarova Dilfuza Klichevna

Practical Methodological Approaches to Developing Management Skills of Deputy Directors in Preschool Educational Organizations Principles of Connecting Theoretical Knowledge With Practical Activity 201
Makhamadalieva E'zoza Rustamkhuja

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Kimyo muhandisligi terminologiyasida polisemiya hodisasi 205
Shomurodova Zebiniso Rajabovna

Talabalar o'quv muvaffaqiyatini rivojlantirishning pedagogik, psixologik va texnologik determinantlari 209
Turaboyeva Madinaxon Raxmonjon qizi

O'quvchilarning madaniyatlararo kompetensiyasini mediamatnlar vositasida rivojlantirishga oid xorijiy tajriba tahlili 219
Turdimuratova Aysanem

Искусственный интеллект в преподавании русского языка в узбекоязычной аудитории: возможности, риски и методические решения 224
Мустанов Убайдулла Зулпанович

Shaxs texnologik tafakkuri fenomenining falsafiy-antropologik va gnoseologik talqini 229
Toshpulatova Farida Radjabovna

Lotin tilining zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni 234
Shirinkulova Shafoat Malikovna, Rajabova Charos Shavkat qizi

Bo'lajak o'qituvchilar raqamli mediamadaniyatini kasbiy-pedagogik sifat sifatida rivojlantirishning konseptual asoslari 240
Narmanov Alisher Hasanovich

Maktabgacha ta'lim tashkiloti menejerlarining intellektual salohiyatini tashxislashning metodik ta'minotini takomillashtirish 244
Abdumo'minova Lobar Abdujabbarovna

Sun'iy intellekt orqali talabalar kasbiy sifatlarini rivojlantirishning boshlang'ich tushunchalari 249
Normurodov Sherzod Boymurodovich

"Smart o'qish" raqamli platformasi va muallif metodlari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy komponentlarini rivojlantirish 253
Obidova Shohsanam G'anijon qizi

Lingvopoetikada shakl va mazmun birligi xususida nazariy qarashlar 257
Quvonchoy Yusupova

Designing an ESP Coursebook for Architecture Students on the Basis Of VTTSS 262
Sabirova Nilufar Kudratovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyatni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish 266
Xasanova Shaxnoza Toxtasinovna

A Comparative Study of Idiom and Environmental Meaning in the Works of Ernest Hemingway and Tog'ay Murod 272
Zebiniso Allayarova, Malika Bahromova

Maktabgacha ta'limda o'yinga asoslangan ta'limni takomillashtirishning O'zbekiston Respublikasidagi me'yoriy-huquqiy asoslari 277
Farmonov Murodullo Sunnatilloyevich

Обучение русскому языку студентов направления узбекской филологии с использованием искусственного интеллекта: методическая модель 282
Набиева Камиля Азимовна

Bo'lajak tarbiyachilar mediakompitentligini raqamli texnologiyalar vositasida shakllantirish samaradorligini baholash mezonlari va diagnostik vositalari 290
Tavobova Ozoda Farhodovna

Все три брата Лобачевские действительно восприняли талант отца 296
Жумаев Эркин Эргашевич, Аманниязова Бибимариям Пирнияз кызы

Pedagogik tafakkur tarixida fikr tarbiyasi: yondashuvlar va zamonaviy ta'limda qo'llanish imkoniyatlari 302
Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limni raqamlashtirish muammolari 306
Raxmatullayeva Malika Bahodir qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarining pedagogik imkoniyati 310
Imomkulova Ozoda Norboboyevna

Pedagogika mutaxassisligi magistrlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interdisiplinar mexanizmlari... 315
Jumaniyazova Go‘zal Baxorovna

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida parametr qatnashgan chiziqli tenglamalarni o‘rganish bo‘yicha ba’zi bir mulohazalar... 319
Musayeva Ziyoda Allayarovna

Bo‘lajak pedagoglarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muammoli ta’lim va keys-stadi metodlarini integratsiyalash... 325
Namozova Barno Navruzovna

Umumta’lim maktablarida formativ baholash orqali o‘quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish: pisa yondashuvi asosida... 331
Norqulov Furqat Maxmatmo‘minovich

O‘quvchilarda agressiv xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy xulq-atvorni tarbiyalash usullari... 336
Nusratova Setora Dilshod qizi, Sh. U. Nurullayeva

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari... 343
Raxmatullin Rafis Sagitovich, Zaitov Iskander Ravilevich, Ikromova Rano Ubaydullayevna, Qodirova Raxima Rajabovna, Muratbayeva Aliya Paraxatovna, Juman Turonovich

Shaxs psixik taraqqiyotida ruhiy holat modeli mental resurs tizimining zaruriy asosi sifatida... 348
Xudoyberganova Maqsuda Jumaniyazovna

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining kreativ tafakkurini o‘yin texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi (TRIZ va milliy xalq o‘yinlari misolida)... 353
Abdusattorova Umida Abdusamad qizi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinga asoslangan ta’limning imkoniyatlari... 359
Ergasheva Muslima Komiljon qizi

Skoliozi bor talabalarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi: shaxslararo munosabatlar va emotsional holat xususiyatlari... 362
Nurullayev Abdurashid Ro‘zimboyevich

Imom Abu Homid G‘azzoliy ilmiy-ma’rifiy merosi asosida oliy ta’lim talabalarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning metodologik asoslarini takomillashtirish... 366
Ochilov Yakub Saydulloyevich

Socio-Psychological Factors in Staff Management in Early Childhood Education... 371
Tursunova Shaxnoza Elmurodovna

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari xodimlarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion mexanizmlari... 376
Xudoynazarova Feruza Ilxomovna

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi: yutuqlar, muammolar va istiqbollar... 380
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna

Дидактическая модель развития когнитивных учебных действий младших школьников на языковом, текстовом, интерпретационном и трансформационном уровнях усвоения понятия “имя существительное”... 384
Солохиддинова Фазилатхон Мухиддин кизи

Raqamli jamiyatda shaxs qadriyatlarining rivojlanishida metakognitiv jarayonlarning psixologik roli... 389
Raxmonova Zarifa Ne’matovna

“Maktab maslahatchisi”ning 6 vazifasi: ijtimoiy-pedagogik tahlil... 392
Jumanov Sherzod Saloyevich

4K modeli (kreativlik, kommunikativlik, kollaboratsiya, kritik fikrlash)ning paydo bo‘lishi va pedagogik asoslari... 397
Raximova Shoira Adilbekovna

Methods for Increasing the Effectiveness of Professional Activities of Higher Education Professors and Teachers Using Digital Technologies... 401
Qosimov Jahongir Avlaqulovich

Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari... 406
Sulaymanova Dildora Baxtiyorovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Oliy ta'limda talabalarda pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi ... 410
Mamatova Saodat Maxmudovna

Pedagogical Foundations of Developing Digital Culture in Future Teachers:
A Stage-By-Stage Model and Assessment Criteria ... 415
Urazova Surayyo Elmurod qizi

Atom yadrosi va elementar zarralar fizikasi fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda
axborot texnologiyalarining o'rni ... 419
A. I. Raxmanov

Bo'lajak o'qituvchilarni xulq-atvordagi og'ishlarni korreksiyalashga tayyorlashning
suggestiv-pedagogik mexanizmlari ... 425
Shermatova Manzura Ikromjanovna

OLIY TA'LIMDA TALABALARDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI BOSHQARISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

UDK: 378.147:005.336.2

Mamatova Saodat Maxmudovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti assistent-o'qituvchisi

ORCID ID: 009-00002-4248-9142

Taqrizchi: Sh. S. Shodmonova
O'zMPU professori, p.f.d.

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarda pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Shuningdek, bo'lajak mutaxassislarning pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish, ta'lim jarayonini rejalashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish, jamoa bilan ishlash hamda pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Talabalarda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, muammoli ta'lim va amaliy mashg'ulotlardan foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonini samarali boshqarishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar va metodik yondashuvlar ko'rib chiqilgan. Maqolada talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda pedagogik jarayonlarni tizimli boshqarish qobiliyatini shakllantirishga doir ilmiy-metodik qarashlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, pedagogik jarayon, boshqaruv kompetensiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik mahorat, ta'limni boshqarish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, kasbiy tayyorgarlik, mustaqil fikrlash.

Abstract: This article explores the theoretical and practical aspects of the methodology for developing students' competencies in managing pedagogical processes in higher education institutions. It examines the development of future professionals' skills in effectively organizing pedagogical activities, planning the educational process, making managerial decisions, collaborating with teams, and analyzing pedagogical situations. The importance of using modern educational technologies, interactive teaching methods, problem-based learning, and practical activities to develop students' management competencies is substantiated. The article also considers pedagogical conditions and methodological approaches that contribute to the effective management of the educational process. Furthermore, it presents scientific and methodological perspectives on improving students' professional training, fostering independent thinking, and developing their ability to manage pedagogical processes systematically.

Key words: higher education, pedagogical process, management competencies, competency-based approach, pedagogical skills, educational management, modern educational technologies, interactive teaching methods, professional training, independent thinking.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты методики развития у студентов компетенций управления педагогическими процессами в учреждениях высшего образования. Анализируются вопросы формирования у будущих специалистов навыков эффективной организации педагогической деятельности, планирования образовательного процесса, принятия управленческих решений, взаимодействия в коллективе и анализа педагогических ситуаций. Обосновывается значение использования современных образовательных технологий, интерактивных методов обучения, проблемного обучения и практических занятий в развитии управленческих компетенций студентов. Также рассматриваются педагогические условия и методические подходы, способствующие эффективному управлению образовательным процессом. В статье представлены научно-методические взгляды на совершенствование профессиональной подготовки студентов, развитие самостоятельного мышления и формирование способности к системному управлению педагогическими процессами.

Ключевые слова: высшее образование, педагогический процесс, управленческие компетенции, компетентностный подход, педагогическое мастерство, управление образованием, современные образовательные технологии, интерактивные методы обучения, профессиональная подготовка, самостоятельное мышление.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash jarayonida talabalarda pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi bo'lajak mutaxassislardan nafaqat chuqur nazariy bilimlarni, balki pedagogik vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, maqsadlarni to'g'ri belgilash, tegishli qarorlar qabul qilish va jamoa bilan samarali hamkorlik qilish qobiliyatlarini ham talab etadi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida talabalarning boshqaruvga oid bilim, ko'nikma va malakalarini izchil rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik tizimni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik jarayonlarni boshqarish ta'lim maqsadlarini belgilash, o'quv faoliyatini rejalashtirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ta'lim oluvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda erishilgan natijalarni baholash kabi o'zaro bog'liq faoliyatlarni qamrab oladi. Mazkur jarayonning samaradorligi boshqaruvni amalga oshiruvchi shaxsning kasbiy tayyorgarligi, pedagogik mahorati, kommunikativ qobiliyati va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalariga bevosita bog'liq. Shuning uchun talabalarda ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladigan nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyat uyg'unligini ta'minlash zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik jarayonlarni boshqarish masalasi pedagogika, ta'lim menejmenti va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlarda muhim o'rin egallaydi. Xususan, pedagogik boshqaruvga oid nazariy qarashlarda ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishning o'zaro bog'liqligi ta'kidlanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga doir tadqiqotlarda esa bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy mas'uliyatni namoyon etish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu ilmiy qarashlarni umumlashtirish talabalarda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun nazariy tayyorgarlik, amaliy mashg'ulotlar, refleksiv tahlil va mustaqil faoliyatni birlashtiruvchi metodik yondashuv zarurligini ko'rsatadi. [2]

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur mavzuni o'rganishda tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil hamda ilmiy-pedagogik umumlashtirish metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Tizimli yondashuv pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyalarini o'zaro bog'liq tarkibiy qismlar majmui sifatida o'rganishga imkon beradi.

Kompetensiyaviy yondashuv esa talabalarning nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llash, muammolarni hal etish va mustaqil boshqaruv qarorlarini qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi.

Tahlil va sintez orqali boshqaruv kompetensiyalarining mazmuni, tarkibi va rivojlanish omillari aniqlashtiriladi.

Mazkur metodlarning uyg'unligi talabalarning pedagogik jarayonlarni samarali boshqarishga tayyorligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalarni ishlab chiqish uchun nazariy asos yaratadi. [1]

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyasi bo'lajak mutaxassisning ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish, uning ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va bartaraf etish hamda kutilgan natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuini anglatadi. Ushbu kompetensiya faqat ma'muriy vazifalarni bajarish bilan cheklanmaydi, balki pedagogik vaziyatlarni chuqur tushunish, ta'lim oluvchilarning ehtiyojlarini hisobga olish, samarali muloqotni yo'lga qo'yish va ta'lim jarayonining sifatini muntazam takomillashtirishni ham o'z ichiga oladi. Shu jihatdan boshqaruv kompetensiyasi pedagogik faoliyatning mazmuni va natijadorligini belgilovchi muhim kasbiy omillardan biri hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini kuchaytiradi. Chunki zamonaviy mutaxassis o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirishi, belgilangan vazifalarni ustuvorlik darajasiga ko'ra tartibga solishi, vaqt va resurslardan oqilona foydalanishi hamda hamkasblari bilan samarali hamkorlik qilishi lozim.

Ayniqsa, pedagogik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun ta'lim jarayonini boshqarish qobiliyati alohida ahamiyatga ega. Kelajakda ular o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, o'quvchilar faoliyatini yo'naltirish, ta'lim natijalarini tahlil qilish va turli pedagogik vaziyatlarda maqbul yechim topish kabi vazifalarni bajaradilar. Demak, boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish oliy ta'limdagi kasbiy tayyorgarlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaralishi zarur. [3]

Pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyasining mazmuni bir nechta o‘zaro uzviy bog‘liq tarkibiy qismlardan tashkil topadi.

Birinchi navbatda, kognitiv komponent talabaning pedagogik boshqaruv, ta’limni rejalashtirish, pedagogik diagnostika, nazorat va baholashga oid nazariy bilimlarini qamrab oladi.

Ikkinchi komponent amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan bo‘lib, olingan bilimlarni real yoki modellashtirilgan pedagogik vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini ifodalaydi.

Uchinchi komponent kommunikativ ko‘nikmalar bilan bog‘liq bo‘lib, fikrni aniq ifodalash, tinglash, muzokara olib borish, hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etishni nazarda tutadi.

To‘rtinchi komponent refleksiv baholash qobiliyatini ifodalaydi. U talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlashi, erishilgan natijalarni baholashi va keyingi faoliyatini takomillashtirish yo‘llarini belgilashida namoyon bo‘ladi.

Mazkur komponentlarning birgalikda rivojlanishi boshqaruv kompetensiyasining yaxlit shakllanishini ta’minlaydi.

Talabalarda pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi, eng avvalo, ta’lim maqsadlari, mazmuni, metodlari va kutiladigan natijalar o‘rtasidagi izchillikni ta’minlashga asoslanishi lozim. Bunda talabalarga boshqaruvga oid nazariy ma’lumotlarni yetkazish bilan bir qatorda, ularni mustaqil fikrlashga, amaliy muammolarni hal etishga va o‘z faoliyati uchun mas’uliyatni his qilishga yo‘naltirish muhimdir. Metodikaning samaradorligi talabalarni tayyor bilimlarni qabul qiluvchi subyekt sifatida emas, balki ta’lim jarayonining faol ishtirokchisi sifatida jalb etish darajasi bilan ham belgilanadi. [4]

Nazariy tayyorgarlikni rivojlantirish bilan bog‘liq. Talabalar pedagogik jarayonning mohiyati, boshqaruvning asosiy tamoyillari, ta’lim faoliyatini rejalashtirish, pedagogik nazorat, motivatsiya, muloqot va baholash usullari haqida tizimli bilimga ega bo‘lishlari zarur. Nazariy mashg‘ulotlarda tushuntirish, muammoli savollar, taqqoslash, tahliliy topshiriqlar va muhokamalardan foydalanish talabalarning mavzuni chuqur anglashiga yordam beradi. Biroq nazariy bilimlarning o‘zi boshqaruv kompetensiyasini to‘liq shakllantira olmaydi. Shu sababli har bir nazariy mavzuni amaliy vazifalar bilan bog‘lash, o‘rganilgan tamoyillarning pedagogik faoliyatda qanday qo‘llanishini ko‘rsatish lozim. [5]

Amaliy faoliyatni tashkil etishdan iborat. Talabalar pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, mashg‘ulot rejasini ishlab chiqish, guruh faoliyatini muvofiqlashtirish, ta’limiy muammolarga yechim topish va o‘z qarorlarini asoslashga doir topshiriqlarni bajarishlari kerak. Masalan, talabalarga guruhdagi o‘zaro kelishmovchilikni hal etish, mashg‘ulotda faolligi past bo‘lgan ishtirokchilarni jalb qilish yoki belgilangan vaqt ichida ta’lim maqsadlariga erishish bo‘yicha vaziyatli topshiriqlar berilishi mumkin. Bunday topshiriqlar talabalardan mavjud ma’lumotlarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni taqqoslash va eng maqbul variantni tanlashni talab qiladi. Natijada ular boshqaruv faoliyatining amaliy mexanizmlarini o‘zlashtiradilar.

Interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish bilan belgilanadi. Munozara, kichik guruhlarda ishlash, rolli o‘yinlar, keys-stadi, loyiha metodi va muammoli vaziyatlarni hal qilish usullari talabalarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun samarali imkoniyatlar yaratadi. Jumladan, rolli o‘yinlar davomida talabalar pedagog, guruh rahbari, kuzatuvchi yoki baholovchi vazifalarini bajarib, turli nuqtayi nazarlarni tushunishga o‘rganadilar. Keys-stadi usulida esa aniq pedagogik muammo tahlil qilinib, uni hal etishning bir nechta yechimi ishlab chiqiladi. Talabalar o‘z takliflarini dalillar bilan asoslashlari, boshqa ishtirokchilarning fikrlarini tinglashlari va umumiy xulosaga kelishlari talab etiladi. Bu jarayon ularda tahliliy fikrlash, muloqot madaniyati, hamkorlik va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. [6]

Mustaqil ta’lim va loyiha faoliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Talabalarga muayyan pedagogik masalani o‘rganish, ta’lim jarayonini tashkil etish loyihasini ishlab chiqish, mashg‘ulot samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar tayyorlash va natijalarni taqdim etish kabi vazifalarni topshirish mumkin. Bunda talabalar faoliyatning maqsadini belgilash, vazifalarni taqsimlash, bajarish muddatlarini rejalashtirish va yakuniy natijalarni baholash jarayonlarida bevosita ishtirok etadilar. Ushbu faoliyat ularda tashabbuskorlik, mas’uliyat, o‘zini o‘zi boshqarish va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, mustaqil loyihalar talabalarga nazariy bilimlarni amaliy vazifalar bilan bog‘lash imkonini beradi. [7]

Raqamli ta’lim texnologiyalaridan maqsadli foydalanish bilan bog‘liq. Zamonaviy raqamli vositalar o‘quv faoliyatini rejalashtirish, topshiriqlarni taqsimlash, jamoaviy loyihalarni muvofiqlashtirish, fikr almashish va natijalarni tahlil qilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Elektron ta’lim platformalari, onlayn muhokama maydonlari, raqamli taqdimotlar va hamkorlikda hujjat tayyorlash vositalaridan foydalanish talabalarning axborot bilan ishlash hamda o‘z faoliyatini tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin. Raqamli texnologiyalarni joriy etishda ularning zamonaviy imkoniyatlaridan ta’lim maqsadlariga muvofiq foydalanish hamda o‘quv natijalarini yaxshilashga qo‘shadigan hissasini asosiy mezon sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

Talabalarda boshqaruv kompetensiyalarini samarali rivojlantirish uchun, avvalo, ta’lim muhitida faol ishtirok, mustaqil fikrlash va o‘zaro hamkorlikni qo‘llab-quvvatlaydigan shart-sharoitlar yaratilishi lozim. Bunday

muhitda o‘qituvchi bilim berish bilan birga, talabalarning izlanish faoliyatini yo‘naltiruvchi, masalalarni mustaqil hal etishiga ko‘maklashuvchi va o‘z faoliyatini baholashga undovchi pedagog sifatida namoyon bo‘ladi. Talabalarga fikr bildirish, savol berish, muqobil yechimlarni taklif etish va o‘z qarashlarini dalillar bilan asoslash imkoniyati berilishi kerak. Bu esa ularda mustaqillik va kasbiy ishonchni shakllantirishga yordam beradi. [8]

Muhim pedagogik shartlardan biri ta’lim mazmunining amaliyot bilan uzviy bog‘liqligidir. Talabaning boshqaruvga oid nazariy tushunchalarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlikda o‘zlashtirishi ularni real pedagogik vaziyatlarda samarali qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu sababli mashg‘ulotlarga amaliy misollar, vaziyatli topshiriqlar, kuzatuvlar, kichik tadqiqotlar va loyihalarni kiritish zarur. Amaliy faoliyat jarayonida talabalar turli pedagogik vaziyatlarni o‘rganadilar, o‘z qarorlarining natijalarini tahlil qiladilar va tajriba asosida xulosalar chiqaradilar. Bu jarayon nazariy bilimlarning mazmunini chuqurlashtirib, ularning kasbiy faoliyatda samarali qo‘llanilishiga yordam beradi. [9]

Individual va jamoaviy faoliyatning oqilona uyg‘unlashtirilishidir. Mustaqil topshiriqlar talabaning shaxsiy mas’uliyati, o‘zini o‘zi nazorat qilishi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Jamoaviy topshiriqlar esa hamkorlik, vazifalarni taqsimlash, umumiy maqsad sari harakat qilish va turli fikrlarni muvofiqlashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ushbu ikki faoliyat shaklining birgalikda qo‘llanilishi talabalarga ham mustaqil, ham jamoa tarkibida samarali ishlash imkonini beradi. Ayniqsa, guruh loyihalarida har bir talabaning vazifasi va mas’uliyatini aniq belgilash boshqaruv tajribasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. [10]

Pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishda qayta aloqa va refleksiya ham alohida o‘rin tutadi. Talabalar bajargan topshiriqlari yuzasidan aniq, asoslangan va rivojlantiruvchi fikr-mulohazalar olishlari kerak. Bunda yakuniy natijani baholash bilan bir qatorda, masalani hal etish jarayoni, tanlangan usullar, hamkorlik darajasi va qabul qilingan qarorlarning asoslanganligiga ham e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. O‘z faoliyatini tahlil qilishga qaratilgan savollar, refleksiv kundaliklar, o‘zini o‘zi baholash varaqalari va o‘zaro baholash topshiriqlari talabalarga o‘zlarining kuchli jihatlari hamda rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Shu tariqa baholash jarayoni nazorat vositasi bo‘lish bilan birga, rivojlanish mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Talabalarda pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini aniqlash uchun oldindan belgilangan mezonlar va kuzatiladigan ko‘rsatkichlardan foydalanish zarur. Bunday mezonlar talabaning nazariy bilimlari, amaliy topshiriqlarni bajarish qobiliyati, kommunikativ faoliyati, turli pedagogik vaziyatlarda qaror qabul qilishi va o‘z faoliyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini qamrab olishi mumkin. Baholash mezonlarining aniq belgilanishi talabalarga ulardan qanday natijalar kutilayotganini tushunish imkonini beradi. Shuningdek, o‘qituvchiga talabalarning rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash va ta’lim metodikasini takomillashtirish uchun zarur ma’lumotlarni taqdim etadi.

Boshqaruv kompetensiyalarini baholashda test va yakuniy nazorat natijalarini amaliy faoliyatga oid qo‘shimcha baholash usullari bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki nazariy bilimlarni baholash bilan bir qatorda, talabaning turli pedagogik vaziyatlarda samarali harakat qilish qobiliyatini ham aniqlash kompetensiyalarni har tomonlama o‘rganishga xizmat qiladi. Shu sababli testlar bilan bir qatorda amaliy topshiriqlar, vaziyatli tahlillar, loyiha ishlari, taqdimotlar, kuzatuv natijalari va refleksiv hisobotlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Baholashning turli usullarini uyg‘unlashtirish talabaning kompetensiyalarini kengroq va xolisroq aniqlashga yordam beradi. [11]

Metodik tizimning natijadorligini oshirish uchun ta’lim jarayonida muntazam diagnostika va rivojlantiruvchi qayta aloqa yo‘lga qo‘yilishi lozim. Dastlabki bosqichda talabalarning mavjud bilim va ko‘nikmalari aniqlanadi, keyingi bosqichda ularni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar tashkil etiladi, yakuniy bosqichda esa o‘zgarishlar belgilangan mezonlar asosida baholanadi. Bunday yondashuv talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, ta’lim mazmunini moslashtirish va qo‘llanilayotgan metodlarning samaradorligini tahlil qilish imkonini beradi. Muayyan ko‘nikmalarni yanada rivojlantirish maqsadida tegishli amaliy mashqlar, qo‘shimcha maslahatlar yoki vaziyatli topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida o‘qituvchining kasbiy mahorati va metodik tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi pedagogik vaziyatlarni to‘g‘ri tanlashi, talabalar o‘rtasidagi hamkorlikni tashkil etishi, muhokamalarni maqsadga yo‘naltirishi va o‘quv natijalarini adolatli baholashi zarur. Buning uchun oliy ta’lim muassasalarida pedagoglarning zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, kompetensiyaviy yondashuv asosida mashg‘ulotlar loyihalash va rivojlantiruvchi baholashni amalga oshirishga oid metodik tayyorgarligini muntazam takomillashtirib borish lozim.

Talabalarda pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish izchil va uzluksiz tashkil etiladigan pedagogik jarayon bo‘lib, turli mashg‘ulotlar hamda metodlarning o‘zaro uyg‘unligini nazarda tutadi. Uning samaradorligi nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan bog‘lanishi, talabalarning mustaqil ishlashi, interfaol metodlardan maqsadli foydalanish, refleksiya va baholashning izchil tashkil etilishi bilan belgilanadi. Ushbu omillarning uyg‘unligi talabalarni pedagogik jarayonlarni ongli, mas’uliyatli va tizimli boshqarishga tayyorlash uchun qulay sharoit yaratadi. [12]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'limda talabalarda pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish va ta'lim sifatini ta'minlashning muhim shartlaridan biridir. Mazkur kompetensiyalar talabalarning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, kommunikativ qobiliyatlari, mustaqil qaror qabul qilish malakalari va refleksiv faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli ularni rivojlantirish jarayoni yaxlit pedagogik tizim asosida tashkil etilishi, ta'lim mazmuni va metodlari aniq belgilangan maqsadlarga muvofiq tanlanishi zarur.

Pedagogik boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda faqat nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirishga asoslangan ta'lim yetarli natija bermaydi. Talabalar olgan bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llash, muammolarni mustaqil tahlil qilish, muqobil yechimlarni taqqoslash va qabul qilgan qarorlarini asoslash imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim. Shu nuqtayi nazardan, muammoli ta'lim, keys-stadi, rolli o'yinlar, loyiha metodi, jamoaviy topshiriqlar va refleksiv mashg'ulotlardan foydalanish muhim metodik ahamiyat kasb etadi. Bunday metodlar talabalarning faol ishtirokini kuchaytirib, ularni kasbiy vazifalarni hal etishga tayyorlaydi.

Pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishda kognitiv, amaliy-faoliyatga yo'naltirilgan, kommunikativ va refleksiv-baholash komponentlarining o'zaro uyg'unligi ta'minlanishi lozim. Nazariy bilimlar boshqaruv faoliyatining ilmiy asoslarini shakllantirsa, amaliy mashg'ulotlar ushbu bilimlarni real vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi. Kommunikativ ko'nikmalar hamkorlikni tashkil etish va muammolarni konstruktiv hal etishga yordam beradi. Refleksiv faoliyat esa talabalarning o'z xatolarini anglashlari, erishilgan natijalarni baholashlari va keyingi faoliyatlarini takomillashtirishlari uchun sharoit yaratadi.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning individual xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga oladigan rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish muhimdir. Bunday muhitda talabalar mustaqil fikrlash, tashabbus ko'rsatish, jamoa bilan hamkorlik qilish va o'z faoliyati uchun mas'uliyatni his etishga o'rganadilar. O'qituvchining yo'naltiruvchi faoliyati, muntazam qayta aloqa, aniq baholash mezonlari va amaliy topshiriqlarning izchil tashkil etilishi kompetensiyalarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda pedagogik jarayonlarni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish oliy ta'lim mazmunini amaliyot bilan uyg'unlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan maqsadli foydalanish va ta'lim natijalarini kompetensiyaviy mezonlar asosida baholashni talab etadi. Mazkur yo'nalishda tizimli ish olib borish talabalarning kasbiy mustaqilligini, boshqaruv madaniyatini, kommunikativ salohiyatini va pedagogik muammolarni hal etish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada oliy ta'lim muassasalarida nazariy bilimlarga ega bo'lish bilan bir qatorda, ularni amaliy faoliyatda samarali qo'llay oladigan, pedagogik jarayonlarni ongli ravishda tashkil etish va boshqarishga tayyor mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur metodik asoslar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son1li "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son2li "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
3. Yakubov U. Opportunities to Develop the Management Competence of Students // Acta NUUz. - 2024. - Vol. 1, No. 1.4. - B. 257–261. - DOI: 10.69617/nuuz.v1i1.4.2073.
4. Djurakulova L. R. Theoretical and Methodological Foundations for Developing Managerial Competence of Students in Higher Education. - 2026. - DOI: 10.5281/zenodo.20005641.
5. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. - Toshkent, 2011.
6. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent, 2006.
7. Zimnyaya I. A. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. - Москва, 2004.
8. Spencer L. M., Spencer S. M. Competence at Work: Models for Superior Performance. - New York: John Wiley & Sons, 1993.
9. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984.
10. Cheng J., Han W., Zhou Q., Wang S. (eds.). Handbook of Teaching Competency Development in Higher Education. - Singapore: Springer, 2024. - DOI: 10.1007/978-981-99-6273-0.
11. Aripova S. A. Development of Management Competencies in Students Based on Individual Approach // European International Journal of Pedagogics. - 2025. - DOI: 10.71337/inlibrary.uz.eijp.69279.
12. Yessengulova M., Ramazanova D., Togaibayeva A. et al. Impact of Pedagogical Management Training Program on Students' Professional Competencies and Management Abilities Development: Case of Kazakhstan // Qubahan Academic Journal. - 2026. - Vol. 6, No. 1. - B. 135–145. - DOI: 10.48161/qaj.v6n1a2019.

1 https://lex.uz/docs/-5013007
2 https://lex.uz/docs/-4545884

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.